
MILLIY MAQSADLARI INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISHDA AHOLINI RO'YXATGA OLISHNING ROLI KATTA



Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish o'tkazilmagan. Aholi soniga, yosh-jins tarkibiga keskin ta'sir ko'rsatgan o'zgarishlar, respublika hududidagi aholi joylashuvi xususiyatlari va boshqa ijtimoiy-demografik o'ziga xosliklar aholining joriy hisobiga oid mavjud ma'lumotlarni qo'llashni sezilarli darajada cheklamoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-yil 10-iyundagi «2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar» rezolyutsiyasiga tayanib, a'zo-davlatlarni 2020-yilda Butunjahon aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish dasturi doirasida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishga taalluqli xalqaro va hududiy tavsiyalarni inobatga olgan holda kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishni qat'iy da'vat etadi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi aholini ro'yxatga olishni o'tkazish Konsepsiyasi qabul qilindi Bunda aholini ro'yxatga olishni o'tkazishning maqsadi, asosiy vazifalari va bosqichlari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra aholini ro'yxatga olish mamlakatda yashovchi barcha aholiga tegishli bo'lgan demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil qilish va e'lon qilishning yagona jarayonini o'z ichiga olib, aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai hisoblanadi va u kelgusi 10 — 30 yillik rivojlanishning prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ishonchli poydevor yaratadi, hududlarni rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatish bo'yicha siyosiy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni olish imkonini beradi. U aholi sonini ishonchli hisoblash, shuningdek, aniq belgilab qo'yilgan yagona hisobga olish davrida aholining jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, ma'lumoti darajasi, yashash sharoiti, bandligi, millati, fuqaroligi hamda boshqa demografik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari bo'yicha yakka tartibda hisobga olish va batafsil tavsiflashning universal usulini ishga solgan holda rasmiy statistika tizimida asosiy ro'l o'ynaydi.

Quvasoy shahar statistika bo'lim boshlig'i:

Q.Sodiqov

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-04-27 12:13:51